



23. Uchta qizlar navbat bilan stol ustidagi shirinliklarni olishdi.



Birinchi qiz stoldagi barcha yurakcha shaklidagi shirinliklarni oldi. Ikkinchi qiz barcha oq rangli shirinliklarni oldi. Uchinchi qiz esa barcha katta shirinliklarni oldi. Lekin ular aynan shunday tartibda shirinliklarni olgan bo'lishi shart emas. Natijada bir qiz 3 ta, ikkichisi 6 ta, uchinchi esa 7 ta shirinlik oldi. Quyidagi shirinliklar to'plamlarining qaysi biri qizlarning birida bor?

- (A) (B) (C) (D) (E)

24. Nodirda 2 turdagi bo'laklar bor: oq va qizil bo'laklar. Kichik kub 4 ta oq bo'lakdan, yoki 1 ta oq va 1 ta qizil bo'lakdan tashkil topishi mumkin. Rasmdagi katta kub kichik kublardan iborat:



Ushbu katta kubni yasash uchun eng kamida nechta oq bo'laklar kerak?

- (A) 8 (B) 11 (C) 13 (D) 14 (E) 23




Tanlov 75 daqiqa davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mos keladi (A – E). Berilgan topshiriqlarning to'liq yechimini keltirish talab etilmaydi. Tanlovda maktab dasturidan tashqari savollar ham uchrashi mumkin.

2024 yil, 26-mart

3-4-sinflar


3 balli masalalar

1. Qaysi kvadrat 2 ta turli xil qismlarga bo'lingan?




2. O't o'chiruvchi sakramagan holda olovga yetib borishi kerak. Buning uchun u eng kamida nechta narvondan foydalanadi?

- (A) 4 (B) 5 (C) 6
(D) 7 (E) 8




3. Jadval 28 ta oq katakdan iborat:



Iroda 2 ta qatorni (chapdan o'ngga) va 1 ta ustunni (tepadan pastga) bo'yadi. Nechta oq katak qoldi?

- (A) 8 (B) 10 (C) 12 (D) 14 (E) 17

4. 1 dan 11 gacha raqamlangan futbolchilar aylana bo'ylab turishibdi. 1-o'yinchidan boshlab har bir o'yinchi ko'ptokni o'zidan chap tarafdagi uchinchi o'yinchiga tepadi (rasmda ko'rsatilganidek). Ular toki ko'ptok qaysidir o'yinchiga ikkinchi marta kelgunicha bu mashqni davom ettiradilar. Ko'ptokni oxirgi bo'lib qaysi raqamli o'yinchi tepadi?



- (A) 7 (B) 8 (C) 9 (D) 10 (E) 11

5. Muhammad 3 ta ketma-ket kelgan 4 xonali sonlarni bir qator qilib yozdi (Masalan, 213, 214, 215 – bular 3 ta ketma-ket kelgan 3 xonali sonlar). Uning singlisi bir nechta raqamlarni o'chirdi.

___7, ___898, 48___


Sonlarning o'chirilgan qismlari qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan (chapdan o'ngga)?

- (A) 389, 3, 99 (B) 489, 3, 96 (C) 489, 4, 98
(D) 489, 4, 99 (E) 488, 4, 99

6. Lola 3 ta o'yinchoq sotib oldi va 7 dollar to'ladi. O'yinchoqlarning narhlari bir-biridan farqli va butun sonlarda ifodalangan. Eng qimmat o'yinchoq qancha turadi?

- (A) 2 dollar (B) 3 dollar (C) 4 dollar
(D) 5 dollar (E) 6 dollar

7. Farhod kublar yordamida figura yasadi, lekin mushuk undan bir kubni tushirib yubordi. Ushbu figura mushuk "hujumi" dan oldin qanday ko'rinishga ega bo'lgan?



- (A) (B) (C) (D) (E)

20. Quyidagi misollarda turli xil figuralar ostida turli xil raqamlar, bir xil figuralar ostida esa bir xil raqamlar yashirilgan.


$$\begin{aligned} \triangle + \triangle &= \square \bigcirc \\ \bigcirc + \triangle &= \square \square \end{aligned}$$

Ushbu ko'paytma nechga teng?

$$\triangle \times \bigcirc \times \square$$

- (A) 0 (B) 15 (C) 18 (D) 28 (E) 30


21. Rasmdagi har bir qator va har bir ustunda 2 tadan qurbaqa bor.



Qurbaqalarning ikkitasi o'ziga qo'shni bo'lgan ikkita bo'sh katakka shunday sakrab o'tmoqchiki, natijada yana har bir qator va har bir ustunda 2 tadan qurbaqa bo'lishi kerak. Qo'shni kataklar deganda umumiy tomonga ega bo'lgan kataklar tushuniladi. Qurbaqalar jami necha xil usulda sakrashi mumkin?



- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 5


22. Rasmda 9 ta xonadan iborat asalari uyasi tasvirlangan.



Ba'zi xonalarda asal bor. Har bir xonadagi son ushbu xonaga qo'shni bo'lgan nechta xonada asal borligini ko'rsatadi (qo'shni xonalar deganda umumiy tomonga ega bo'lgan xonalar nazarda tutilgan). Nechta xonada asal bor?

- (A) 4 (B) 5 (C) 6 (D) 7 (E) 8

16. Pol ikki xil ko'rinisdagi plitkalar bilan qoplangan:  va . Rasmda polning bir qismi tasvirlangan.



Agar to'g'ri to'rtburchak shaklidagi plitkani o'lchami 23 cm x 11 cm bo'lsa, kvadrat shaklidagi plitkani tomoni nechaga teng?

- (A) 3 cm (B) 4 cm (C) 5 cm (D) 6 cm (E) 7 cm

5 balli masalalar


17. Temurda sonlar yozilgan 3 ta karta bor. Bu sonlar yig'indisi 782 ga teng. Har bir kartadagi sonning bitta raqami o'chib ketgan:



Shu 3 ta o'chib ketgan raqamlarning yig'indisi nechaga teng?

- (A) 8 (B) 9 (C) 10 (D) 11 (E) 12

18. Lobar 2 tadan geometrik figuralarning vaznini o'lchadi. 3 ta figuraning birgalikdagi vaznini toping.



- (A) 270 g (B) 280 g (C) 290 g (D) 300 g (E) 310 g


19. 60 ta o'quvchi yo'lga chiqdi. Ular bir qatorga turganida ularning jiletlarining rangi: sariq, yashil, sariq, yashil...

Ularining ryukzaklarining rangi esa: qizil, qora, ko'k, qizil, qora, ko'k ...

Sariq jiletli o'quvchilarning nechtasida ko'k rangli ryukzak bor?

- (A) 3 (B) 4 (C) 6 (D) 8 (E) 10

8. Alining oshxonasining devorida «Kenguru» tanlovining plakati ilingan.




Plakat ostida nechta kulrang katakcha bor?

- (A) 15 (B) 21 (C) 25 (D) 30 (E) 35

4 balli masalalar

9. Anora va Latif tanga tashlashyapti.








Agar tanganing qizil tomoni tepaga qarab tushsa, o'yinchi uch katak oldinga yuradi. Agar tanganing yashil tomoni tepaga qarab tushsa, o'yinchi bir katak orqaga yuradi yoki boshlang'ich (0) katakda qoladi. Har bir o'yinchi boshlang'ich (0) katakdan o'yinni boshladi va 4 martadan tanga tashladi. Anora 4-katakda, Latif esa 8-katakda turibdi.

Ularda hammasi bo'lib necha marta tanganing yashil tomoni tushgan?



- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 5

10. Savatda 5 xil meva bor:     

Aziza  yoqtiradi,



Botir      yoqtiradi,

Komila    yoqtiradi,






Doniyor   yoqtiradi,

E'zoza   yoqtiradi.

Bolalarning har biri savatdan o'zi yoqtirgan mevani oldi. Har bir bola turli xil meva olgan. Botir qaysi mevani olgan?

- (A)  (B)  (C)  (D)  (E) 


11. Diyora rasmda ko'rsatilganidek, 8 ta disk yordamida bino qurdi. U binoning pastidan ikkinchi diskni oldi, keyin esa qolgan binoning pastidan uchinchi diskni oldi. Bundan keyin u qolgan binoning pastidan to'rtinchi diskni oldi. Qolgan binoning pastidan beshinchi diskni olsa, qanday bino hosil bo'ladi?

- (A)  (B)  (C)  (D)  (E) 

12. Pingvin har kuni baliq oviga boradi va o'zining ikkita bolasiga 9 ta baliq tutib keladi. U har kuni qaysi bolasini birinchi bo'lib ko'rsa, o'sha bolasiga 5 ta baliq, ikkinchisiga esa 4 ta baliq beradi. Har ikkala bolasi berilgan barcha baliqlarni yeydi. Oxirgi bir necha kun davomida pingvinning bir bolasi 26 ta baliq yegan. Ikkinchi bolasi shu vaqt davomida nechta baliq yegan?

- (A) 19 (B) 22 (C) 25 (D) 28 (E) 31

13. 1 dan 7 gacha raqamlangan 7 ta karta bir-biri bilan kesishuvchi 4 ta aylanaga joylangan. Har bir aylana ichidagi sonlar yig'indisi 10 ga teng.



So'roq belgisi ostidagi kartada qanday son yozilgan?


- (A) 1 (B) 2 (C) 4 (D) 5 (E) 7

14. Laziz quyidagi bo'laklar yordamida shunday iloncha yasamoqchiki: uning boshi, dumi va ular orasida yana 1, 2 yoki 3 ta bo'lak bo'ladi. Quyidagi bo'laklardan, ularni aylantirmagan holda, nechta turli xil iloncha yasash mumkin?



- (A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7

15. Jasur qog'ozga avval 1 dan 4 gacha bo'lgan sonlarni yozdi. Keyin u qog'ozni o'girdi va 5 dan 8 gacha bo'lgan sonlarni rasmda ko'rsatilganidek yozdi.



Shundan so'ng u qog'ozni 4 ta to'g'ri to'rtburchak shaklidagi kartochkalarga bo'ldi va quyida ko'rsatilganidek bir qatorga joyladi.



So'roq belgilari ostidagi sonlar yig'indisini toping.

- (A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7